


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-martida Qoraqalpoǵiston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 5 689,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-mart bilan taqqoslaganda 3,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021-yilning yanvar-martdagи narxlarga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpoǵiston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>5 065,9</b>	<b>5 689,2</b>	<b>103,7</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 516,0	5 049,2	103,6
mahsulotlarga sof soliqlar	549,9	640,0	104,6
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>4 516,0</b>	<b>5 049,2</b>	<b>103,6</b>
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<i>579,6</i>	<i>626,4</i>	<i>101,2</i>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>2 007,4</b>	<b>2 108,8</b>	<b>101,7</b>
sanoat	1 633,9	1 684,2	101,8
qurilish	373,5	424,6	101,0
<b>xizmatlar</b>	<b>1 929,0</b>	<b>2 314,0</b>	<b>106,2</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	265,0	303,1	102,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	289,7	394,2	132,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 374,3	1 616,7	101,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 914,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan  
YAHM hajmi va o'sish sur'atlari**




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 88,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 12,4 % ni, sanoat tarmog'i 33,4 % ni, qurilish 8,4 % ni va xizmatlar sohasi 45,8 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,1	88,8
mahsulotlarga sof soliqlar	10,9	11,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>12,8</b>	<b>12,4</b>
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	44,5	41,8
sanoat	36,2	33,4
qurilish	8,3	8,4
<b>xizmatlar</b>	<b>42,7</b>	<b>45,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	6,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	7,8
boshqa xizmat tarmoqlari	30,4	32,0

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



YAHMning o’sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o’sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O’sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 101,2 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 12,4 %), sanoatda – 101,8 % (33,4 %), qurilishda – 101,0 % (8,4 %), xizmatlar sohasida – 106,2 % ni (45,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o’sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 102,8 % (6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 132,8 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,3 % dan (32,0 %) iborat bo‘ldi.

**2021-2022-yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutloq o’sish sur’atlari  
(o’tgan yilga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,1 f.p. (2021-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,6 f.p. (2021-yilning yanvar-martida – 4,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2021-yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2021-yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.) ijobjiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2021-yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) ga ko'paydi.


### **2022-yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi**

*(jamiga nisbatan % da)*



2022-yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021-yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,9 % va qurilishda – 112,5 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilga nisbatan % da)



**2021-2022 yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 43,9 % ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 44,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o’tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

